

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM**  
**VAZIRLIGI**

**60411200 – “MENEJMENT: SOG‘LIQNI SAQLASH MENEJMENTI”**  
**(Sog‘liqni saqlashda menejment) ta‘lim yo‘nalishi**  
**MALAKA TAVSIFNOMASI**

**Toshkent-2021**

## ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

## TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot va farmatsevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishida ma'qullangan.

2021 yil «16» avgust dagi 4 - sonli bayonnoma.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2021 yil «31» avgust dagi 217 - sonli buyrug'ining 3 ilovasi bilan tasdiqlangan.

## JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

## MUNDARIJA

<b>1. Umumiy qoidalar.....</b>	<b>5</b>
1.1. Ushbu malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilar asosida tuzilgan.....	5
1.2. <b>60411200 - Menejment: Sog'liqni saqlash menejmenti</b> bo'yicha malaka tavsifnomasi davlat me'yoriy hujjati bo'lib, quyidagilarni belgilaydi.....	6
1.3. Ushbu malaka tavsifnomasi mo'ljallangan.....	6
1.4. Tibbiyotda sog'liqni saqlashda menejment malaka tavsifnomasi ishlatiladi.....	7
1.5. Tibbiyotda sog'liqni saqlashda menejment kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart sharoitlari.....	7
<b>2. Sog'liqni saqlashda menejment malaka tavsifnomasi.....</b>	<b>8</b>
2.1. Tibbiyotda sog'liqni saqlashda menejment bilimi.....	8
2.2. Tibbiyotda, tibbiyot menejeri ko'nikmasi.....	8
2.3. Asosiy nazariy bilimlar.....	9
<b>3. Aholi salomatligini saqlash va kasalliklarning oldini olishda (profilaktikasida) Tibbiyotda menejment o'rni.....</b>	<b>9</b>
3.1. Tibbiyot menejeri majburiyatlari.....	10
<b>4. Tibbiyot menejmenti ega bo'lishi shart bo'lgan amaliy ko'nikmalar.....</b>	<b>10</b>
<b>5. Tibbiyotda menejmenti munosabatlariga qo'yilgan talablar.....</b>	<b>10</b>
<b>6. Uzlaksiz kasbiy ta'lim va Tibbiyot menejerining attestatsiyasi.....</b>	<b>11</b>
<b>7. Malaka tavsifnomasi tuzilishida quyidagi hujjatlar bilan ishlangan: .....</b>	<b>13</b>

## 1. UMUMIY QOIDALAR

Respublikamizda sog‘liqni saqlashni boshqaruv tizimini takomillashtirish ko‘p jihatdan ushbu kasb egalari ya‘ni tibbiyot menejerlari rolini va ahamiyatini oshirishdan, dunyoning yetakchi davlatlarining ilg‘or tajribalaridan hamda ilm–fan yutuqlaridan foydalangan holda “Sog‘liqni saqlashda menejment” sohasi davlat, aksionerlik va xususiy tibbiyot kompaniyalar (firmalar), tibbiyot ishlab chiqarish korxonalarini va birlashmalari, iqtisodiyotning turli soha va sog‘liqni saqlash tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo‘yicha DPM larda iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini menejmentning rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy kontseptsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog‘lik kasbiy sohalar majmuasini uzluksiz ta‘lim orqali yaxshilashdan iborat.

**Sog‘liqni saqlashda menejment** mutaxassislari hozirgi bozor o‘zgarishlarini e‘tiborga olgan holda tibbiyotda ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish, ma‘lumotlarni yig‘ish, ularni tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan tadbirlarni o‘tkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu bilan birga sog‘liqni saqlashni boshqarish jarayonlari, menejmentning asosiy funktsiyalari, boshqaruv ob‘ekti va sub‘ekti haqida asosiy tushunchalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lish. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va rivojlantirish, aholi salomatligini muhofazalash bo‘yicha qabul qilingan davlat va hukumat qarorlarini bilish va ularni amaliyotda qo‘llash. Menejment funktsiyalarini tashkil etish, rejalashtirish motivlashtirish, nazorat qilish, xodimlarni boshqarishni chuqur o‘zlashtirish. Boshqaruv bo‘yicha qarorlarni qabul qilish, ishni to‘g‘ri tashkil etish, strategik va biznes rejalarni tuzish, xodimlarni tanlash, ishga qabul qilish, ularni qiziqtirishning yangi zamonaviy usullarni o‘rganish va qidirish ko‘nikmalarini rivojlantirish, aholini tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlay bilish, sog‘liqni saqlashni barcha sub‘ektlari bilan hamkorlikni ta‘minlash, aholi salomatligini mustahkamlash va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida mahalliy hokimiyat organlari bilan o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borish tajribalarini rivojlantirish. Aholiga yuqori malakali, sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash, tibbiyot muassasalari va xodimlari faoliyatini tahlil etish va baholash bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish.

Ushbu **Sog‘liqni saqlashda menejment** malakaviy tavsifnomasi zamonaviy talbalarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlanishida asosiy hujjat hisoblanadi va kadrlar tayyorlashga unifitsirlangan va tizimli yondashuv yaratib beradi.

**1.1. Ushbu malakaviy tavsifnoma davlat normativ hujjati hisoblanadi va quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:**

**Bu malaka tavsifi Davlat me‘yoriy hujjati quyidagilar asosida ishlab chiqilgan:**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.05.2017 yildagi PQ-2956-sonli “Tibbiy ta‘lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 martdagi “Shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4985-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 sentyabrdagi 718-sonli "Tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash, tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish uchun birlamchi tibbiy-sanitariya yordamida ko‘rilayotgan profilaktika choralarining samaradorligi uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida"gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda "O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-5590-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 martdagi "O‘zbekiston Respublikasining birlamchi sog‘liqni saqlash muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi PQ-2857-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tibbiy va farmatsevtik ta‘lim va fan tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-sonli Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 sentyabrdagi "Tibbiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 769-sonli qarori.


2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash buyicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035-sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 dekabrda "Yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari. to‘g‘risidagi” PQ-4063 – sonli qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 aprelda "PQ-4666-sonli “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrda "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni;



O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi “**Oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida**”gi 311-sonli buyrug‘i.

**1.2.Ushbu malakaviy tavsifnoma davlat normativ hujjati hisoblanadi va quyidagilarni belgilaydi:**

–Tibbiyotda menejment mutaxassis faoliyatining asosiy talablari va faoliyat yuritish shartlari, professional yo‘naltirilishi;

– *Sog‘liqni saqlashda menejment*, mutaxassisligi bo‘lgan malaka talablarini;

– *Sog‘liqni saqlashda menejment* mutaxassislik attestatsiyadan o‘tkazish talablarini;

– *Sog‘liqni saqlashda menejment* mutaxassisini oliy tibbiy oliygohlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish o‘quv dasturlarini unifikatsiyalash O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimida sog‘liqni saqlash boshqaruvchilari –menejerlari tayyorlanish sifatini oshishi va ushbu jarayonda mas‘uliyat ortib borishiga zamin yaratadi;

–“qayta aloqa” mexanizmlarini amalga oshirishda sog‘liqni saqlashni boshqarish va tibbiyot menejerlari mutaxassislarining amaliy faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

**1.3.Ushbu malakaviy tavsifnoma**

–tibbiy oliygohlar va ularning filiallari;

–sog‘liqni saqlashni boshqarmalari;

–ushbu mutaxassis mehnatidan foydalanuvchi vazirliklar, boshqarmalar, muassasalar va tashkilotlar;

–sog‘liqni saqlash mahalliy boshqarmalari;

–Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ilmiy-amaliy markazlari;

–sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati hamda ularning hududiy filiallari bosh vrach o‘rinbosarlari yordamchilari;

–Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari (tuman markaziy ko‘ptarmoqli poliklinikalar, oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari) bo‘lim mudirlari, bosh vrachlari yordamchilari, tuman va shahar markaziy shifoxonalari bosh vrachlarining birinchi o‘rinbosalarining yordamchilari;

**1.4. Sog‘liqni saqlashda menejment ushbu malaka tavsifnomasi ishlatiladi:**

-ushbu yo‘nalishdagi mutaxassislarga bo‘lgan etiyojni oldindan ko‘ra bilish, diplom oldi, diplomdan keyingi ta‘lim va adaptatsiya o‘quv reja va dasturlari ishlab chiqilishida;

-tayyorlov, qayta tayyorlashni takomillashtirishda, malaka talablarini oshirishda, professional faoliyat yo‘naltirish va tahlil etishda,

- bakalavriat bitiruvchilarining yakuniy attestatsiya o‘tkazishda Davlat imtixon hay‘ati maqsad va vazifalarini aniqlashda;

-oliy ta‘lim muassasalarida va diplomdan keyingi tibbiy ta‘lim muassasalarida davlat o‘quv me‘yorlari, o‘quv dasturlari, o‘quv rejalari va tegishli yo‘nalishlarda ishchi dasturlar ishlab chiqishda;

- Tibbiyotda menejment mutaxassisi faoliyatini baholash va nazorat qilib borishda foydalaniladi.

### **1.5. Sog'liqni saqlashda menejmentmutaxassisi kasbiy tayinlanishi va ish faoliyatining shart –sharoitlari:**

Jamiyatning hozirgi tez rivojlanish bosqichida, sog'liqni saqlash sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan ishlar, sog'lom turmush tarzini va aholining jismoniy faolligini qo'llab quvvatlash, sug'urta tibbiyotiga o'tish davrida sog'liqni saqlashni boshqarish, aholi salomatligini mustahkamlash, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatni yanada yaxshilash, sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatini to'g'ri tashkil etish va ularni tahlil etish hozirgi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

*Sog'liqni saqlashda menejment* mutaxassislari aholining sog'liqni saqlash sohasida o'z professional faoliyatini Sog'liqni Saqlash vazirligining tibbiy-sanitariya muassasalarining tegishli yo'nalish bo'g'inlarida olib boradi:

-qishloq vrachlik punktlardagi, qishloq oilaviy poliklinikalardagi, shahar oilaviy poliklinikalardagi, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalardagi, kasalxonalaridagi, tibbiy markazlarida va tibbiy-profilaktika muassasalari, xususiy tibbiyot markazlari;

-oliy tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar faoliyat yuritishi lozim bo'lgan sog'liqni saqlash tizimining tegishli nomlanish asosida tashkilot va muassasalarida;

-sog'liqni saqlash tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, tegishli nomlanishda ko'zda tutilgan oliy tibbiy ma'lumotga ega mutaxassislar egallashi mumkin lavozimlarda.

## **2. SOG'LIQNI SAQLASHDA MENEJMENTGA BO'LGAN MALAKA TAVSIFNOMASI**

### **2.1. Sog'liqni saqlashda menejmentmutaxassisi bilimi:**

-Fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi qonunchilik asoslari, sog'liqni saqlash, tibbiy xodimlar javobgarligi boshqaruvi, ularning huquq va majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi me'yoriy-huquq xujjatlari;

- O'zbekiston Respublikasi - Fanlar akademiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tibbiy markazlarida kasalliklarning tarqalishini va kechishini o'rganish, aholi o'rtasida kasalliklarning tarqalishini oldini olishga va kasalliklarning kechishi bo'yicha bashorat bera olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;

- sog'liqni saqlash tizimining davolash va profilaktika tashkilotlarida (markaziy tuman, shahar, viloyat, respublika shifoxonalari bo'limlarida, ko'p tarmoqli markaziy shahar poliklinikalari, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida, dispanserlar, tibbiy yordam markazlari va stantsiyalari, onalik va bolalikni himoya qilish tashkilotlari, senator-koron tashkilotlari) sog'liqni saqlashni baholash va nazorat qilishda foydalaniladi.

- sog'liqni saqlashni boshqarish sohasidagi tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'larida sog'liqni saqlashni boshqarish sohasida kompleks masalalarni yechishni o'z ichiga oladi.

## **2.2. Sog'liqni saqlashda menejmentamaliy ko'nikmasi:**

- tibbiyot muassasalarida kadrlarni tanlash;
- salohiyatga qarab ish bilan ta'minlash;
- Ishbilarmonlik suhbatini o'tkazish, ziddiyatlarni bartaraf etish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy iqtisodiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;
- sog'liqni saqlashda birlamchi bo'g'in ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- korxonalar tashkiliy-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish.
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

## **2.3. Asosiy nazariy bilimlar**

### **Sog'liqni saqlashda menejment mutaxassisi bilishi kerak:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tibbiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;



– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘grisidagi ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish; qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma‘lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshkara olish;

- tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar bazasini yuritishni bilish;

- loyihalar samaradorligini baholay olish;

- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlay olish;

- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholashni bilish.

- ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

- sog‘liqni saqlash sohasining barcha bo‘g‘inlari sub’ektlarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlashga bag‘ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish va tizimlashtirish;

- tarmoqlar va sohalarni zamonaviy boshqarish tizimini ta‘minlash borasidagi muammoli mavzular bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlash girish ishlarini amalga oshirish;

- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- marketing yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

- biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chikish va amalga oshirish;

- tashkilot xisobidagi moliyaviy mablag‘larni uning faoliyatini takomillashtirish maqsadida to‘g‘ri yo‘naltirish;

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar moxiyatini tushunishi, tibbiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish.

### 3. MENEJMENT: SOG‘LIQNI SAQLASH MENEJMENTI TOMONIDAN OLIB BORILADIGAN AXOLI SOG‘LIG‘INI SAQLASH VA PROFILAKTIKA ISHLARIDA SOG‘LIQNI SAQLASHDA MENEJMENT MUTAXASSISINING O‘RNI

#### 3.1. Sog‘liqni saqlashda menejmentning majburiyatlari:

faoliyatining asosiy yo‘nalishi aholi sog‘lig‘ini saqlash, kasalliklarni oldini olish, erta tashhislash va davolash xisoblanadi. Sog‘liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog‘lig‘ini saqlash shifokori axolining demografik va tibbiy-ijtimoiy tamoyillarini bilishi zarur.

Quyida tibbiy-profilaktika muassasalari (qishloq vrachlik punktlari, qishloq oilaviy poliklinikalari, oilaviy poliklinikalar, ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika, kasalxonalar, tibbiy-profilaktika muassasalarining qabul bo‘limi tibbiy markazlari, Respublika Ilmiy-ixtisoslashgan markazi, ilmiy-tekshirish institutlarida, ijtimoiy ta‘minot va reabilitatsiya markazlari, sanator-kurort muassasalari, statistika boshqarmalarida faoliyat olib borishda bilishi kerak bo‘lgan funksional vazifalari keltirilgan:

- Aholining tibbiy madaniyatini oshirish;
  - Sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti;
  - Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida tibbiyotga oid maxsus fanlarni o‘qitish;
  - O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tibbiy markazlarida kasalliklarning tarqalishini va kechishini o‘rganish, aholi o‘rtasida kasalliklarning tarqalishini oldini olishga va kasalliklarning kechishi bo‘yicha bashorat bera olishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish;
  - sog‘liqni saqlash tizimining davolash va profilaktika tashkilotlarida (markaziy tuman, shahar, viloyat, respublika shifoxonalari bo‘limlarida, ko‘p tarmoqli markaziy shahar poliklinikalari, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida, dispanserlar, tibbiy yordam markazlari va stantsiyalari, onalik va bolalikni himoya qilish tashkilotlari, sanator-kurort tashkilotlari) sog‘liqni saqlashni boshqarishga oid tibbiy, profilaktik va texnologik muammolari bo‘yicha asosiy vazifalarni hal qilish;
  - sog‘liqni saqlashni boshqarish sohasidagi tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
  - sog‘liqni saqlash tizimining barcha bo‘g‘inlarida sog‘liqni saqlashni boshqarish sohasida kompleks masalalarni yechish;
- Menejer o‘z huquq va majburiyatlari, shuningdek qo‘l ostidagilar va mijoz huquqini bilishi bo‘yicha *ko‘nikmalariga va tajribaga ega bo‘lishi* zarur.

#### **4. MENEJMENT: SOG'LIQNI SAQLASH MENEJMENTI TIZIMIDA KO'RSATILADIGAN MAJBURIYATLAR XAJMI**

##### **4.1. Ko'rsatiladigan Biznes va boshqaruv darajasiga ko'ra Menejment: sog'liqni saqlash menejmenti tomonidan bajariladigan faoliyat:**

1. Aholi orasida keng tarqalgan va ixtisoslashtirilgan markazlar, reabilitatsiya va dispanser kuzatuv faoliyatlarini nazoratini olib borish.

Shuningdek, tibbiy va salomatlik jarayonining nazariy asoslari, muammolar va kontsepsiyalarini, aholi va oila salomatligi, aholi turmush sharoiti, turmush tarzi va boshqa unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'liqni saqlashdagi turli xizmatlarni boshqaruvida foydalanishi mumkin bo'lgan salomatlikni mustahkamlashni yangi metodlarni ishlab chiqish va qidirish, hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

1. Aholini tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlay bilish, sog'liqni saqlashni barcha sub'ektlari bilan hamkorlikni ta'minlash, aholini salomatligini mustahkamlash va sog'liqni saqlash maqsadida mahalliy hokimiyat bilan o'zaro faoliyat olib borish tajribalarini rivojlantirish, aholiga sifatli ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash.

2. Ilmiy tadqiqotlar, salomatlikning xalqaro jihatlari va asosiy vazifalari, aholi sog'lig'ini muhofaza qilish asosiy tamoyillarini bilishi va ulardan foydalana olishi, atrof - muhit va aholi sog'lig'ini saqlash bilan bog'liq muammolarni va havf omillarini aniqlash

**Taqdim etilgan holatlar va faoliyat natijalari, ularni kechishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqish zarur.**

#### **5. SOG'LIQNI SAQLASHDA MENEJMENT EGA BO'LISHI SHART BO'LGAN AMALIY KO'NIKMALAR**

**Sog'liqni saqlashda menejment mutaxassisiga qo'yiladigan amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak:**

- turli muassasalar faoliyatidagi jarayonlarni boshqara olish;
- muassasa ishlarining strategik rejalari va biznes rejalari tuza olish;
- turli muassasalar faoliyatidagi jarayonlarni boshqara olish, statistik tadqiqotlar o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil etish va baholay olish;
- foydalanayotgan va yangidan joriy etilayotgan tibbiyot texnologiyalari monitoringini olib borish, qishloq aholisiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsata olish;
- muassasalarga kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish va boshqarish;
- tibbiyot xodimlarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;
- rahbarlik usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- guruhlarga rahbarlik qilish va liderlik;
- ish haqi va imtiyozlarni aniqlash;
- faoliyat natijalarini baholash, lavozimni oshirish, tushirish, ishdan bo'shatish, boshqa ishga o'tkazish;
- rahbar va xodim; boshqaruvchi va bo'ysinuvchi o'rtasidagi kommunikatsiya;
- nizo, stresslarni oldini olish, boshqarish va ularni barataraf etish malakalariga ega bo'lishi lozim.

## **6. SOG‘LIQNI SAQLASHDA MENEJMENT MUTAXASSISINING MUNOSABATLARIGA QO‘YILGAN TALABLAR**

**Xodimlarga nisbatan Sog‘liqni saqlashda menejment tomonidan ko‘rsatiladigan munosabat**

- Xodimlar deontologiyasi
- Xodimlar sirini saqlash
- Ziddiyatli vaziyatlarda omillarni aniqlash va bartaraf etish
- Xodimlar bilan kollegial munosabatlar o‘rnatish
- Guruxli ishlash va mexnatni tashkil etish
- Boshka muassasa xodimlari bilan xamkorlik
- Konsultantlarni jalb etish

## **7. UZLUKSIZ KASBIY TA‘LIM VA BIZNES VA BOSHQARUV MUTAXASSISINING ATTESTASIYASI**

*Sog‘liqni saqlashda menejment* mutaxassisi o‘z kasbiy bilim ko‘nikma va bilimlarini uzluksiz mustaqil o‘qish yuli bilan takomillashtirib borishi lozim. Menejer mutaxassisi oliy tibbiy o‘quv muassasalarda, malaka oshirish institutlari tsikllarida sertifikat va/yoki guvohnoma olib o‘qishlari mumkin .

*Sog‘liqni saqlashda menejment* mutaxassisligi sog‘likni saqlash boshqarmalari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan tuman, viloyat, respublika bosqichlarida tashkil etilgan qisqa muddatli o‘quv kurslari va seminarlarda qatnashib, ular yakunida sertifikat, attestat, guvohnomalar olib ishtirok etishi lozim.

Xar 5 yilda *Sog‘liqni saqlashda menejment* mutaxassisi o‘z malakasini tasdiqlash uchun malakaviy attestatsion imtihon topshiradi.

**Malaka tavsifnomasini tuzishda quyidagi hujjatlar bilan ishlangan:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining “Tibbiyot va farmatsevtika oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019 yil 12 avgustdagi 209 sonli buyrug‘i.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi “Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 311-sonli buyrug‘i  
3. 910000 – Sog‘liqni saqlash ta‘lim sohasining davlat ta‘lim standarti.
4. Rossiya Federatsiyasi Tibbiyotda menejment mutaxassis-shifokori kasbiy standarti.

**KELISHUV VARAG'I  
ISHLAB CHIQLDI:**



Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektor A.K. Shadmanov

2021 yil "06" "09"

M.O'.

**KELISHILDI:**

Tibbiy ta'limni rivojlantirish  
markazi direktori

N.R. Yangiyeva

2021 yil "06" "09"

M.O'.



O'zbekiston milliy universiteti

Rektor

I.U. Madjidov



2021 yil "06" "09"

Fan va ta'lim boshqarmasi

boshlig'i

A.T. Maxmudov

2021 yil "10" "09"

M.O'.



Toshkent shahar sog'liqni saqlash

Bosh boshqarmasi boshlig'i

A.V. Alimov



M.O'.

2021.10.09

Toshkent shahar olmazor tumani

ko'p tarmoqli poliklinika bosh shifokori

A.K. Nizamov

2021 yil "08" "09"

M.O'.

